

INCREASING INNOVATIVE ACTIVITY IN TEACHERS IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT

Okilova Kamola Sadulloyevna

Return of Samarkand regional public educators training and retraining them regional center teacher

Annotation

The article emphasizes that improving the innovative competencies of natural science teachers in the advanced training system is an important factor today. The role and importance of innovative competences of teachers is also emphasized, as well as their effective use in the formation of independent thinking.

Keywords: competence, system, teacher, innovation, qualification, education, technology, problem, education, quality, teacher, interactive, lifelong learning, development

Respublikamizda uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini kengaytirish, pedagog kadrlarning raqobatbardoshligiga erishish va innovasion faoliyatga tayyorlash siyosati izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, pedagog kadrlarining kasbiy bilimi, ko'nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish, qayta tayyorlash va malaka oshirishning bevosita hamda kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir birini to'ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etishni ta'minlashga doir keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish" kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirish, intellektual salohiyatni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Biroq, uzluksiz malaka oshirish tizimida ta'lim muassasasi pedagog kadrlarining innovasion salohiyatini rivojlantirish mazmuni, pedagogik-psixologik xususiyatlari, innovasion muhitni tashkil etishning pedagogik mexanizmlari bugungi kunda ishlab chiqilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida innovasion omil masalasini o'rganish hozirgi kunda eng katta ilmiy qiziqish uyg'otgan ilmiy muammolardan biri bo'lib, mazkur muammo ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalar bilan hamohanglikda hamda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayoni bilan uzviylikda o'rganildi va tahlil etildi. Shunga ko'ra, ta'limda innovasiya masalasi uning keng tarmoqli va mohiyatli amaliy faoliyatini o'z mazmuniga qamrab olgan yo'nalishlardan biriga aylandi. Ularda mamlakat ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlar va qayta shakllantirish jarayonlari o'rganildi. Mazkur o'zgarishlar ta'lim tizimini yangi mazmundagi bosqichlarga ajratish, innovasion yo'nalishlar, yangi mutaxassislik va sohalar kiritish, ta'lim tizimini uzviylik va uzluksizlikda rivojlantirish, uning zamonaviy pedagogik shakl, vosita va usullarini ishlab chiqish bilan bog'liq holda rivojlantirib borilmoqda.

Pedagogikada salohiyat masalasi shaxs ijodkorligi bilan bog'liqlikda D.K.Simonton, A.Dj.Rou, K.Rodjers, Ye.P.Ilin, B.R.Adizov, Sh.S.Sharipov, A.R.Aripdjanova, D.B.Yakubjanova va boshqalarning ilmiy izlanishlarda tahlil etilgan. Mazkur tadqiqotlar natijalari bizga "ijodiy salohiyat" va "pedagogning innovasion salohiyati" tushunchalari o'rtasidagi o'xshashlik hamda farqlarni mantiqiy asoslash imkoniyatini taqdim etdi.



Nazariy ma'lumotlar tahlili "pedagog kadrlarning innovasion salohiyati" tushunchasining mohiyatini yanada aniqroq ochib berish zaruriyatini ko'rsatdi. Biz pedagog kadrlarning innovasion salohiyatini pedagogik faoliyat jarayonida amalga oshadigan innovasion bilim, ko'nikma, tajriba va zahira intellektual qobiliyatlarning motivasion-qadriyatli jihatlari majmuini o'zida aks ettiradigan hamda innovasiyalarni qo'llash imkoniyatini taqdim etuvchisi integral kasbiy-shaxsiy tavsifi sifatida talqin qildik.

Ko'pchilik mualliflar innovasion salohiyat tuzilmasining quyidagi komponentlarini ajratib ko'rsatishgan: shaxsiy, motivasion-qadriyatli va faoliyatga doir. Innovasion salohiyat tuzilmasini bunday tarzda tushunish uning statik holatini ifoda etadi. Bizningcha, mualliflar potensial innovasion imkoniyatlarni rivojlantirishni hisobga olmaydigan, rivojlanish ta'lim muassasasining tashqi innovasion muhiti bilan bog'liqlikda ko'rib chiqilmagan alohida o'ziga xosliklarini ochib bermaydi.

Innovasion faoliyatning mohiyati va mazkur masala yechimiga qaratilgan mulohazalar tahlilidan kelib chiqib biz innovasion salohiyat integral tavsifga ega tushuncha ekanligini anglaymiz, uning asosiy tarkibiy qismlari sifatida real va reallashmagan potentsiallar, pedagogik faoliyatda muhim o'rin tutadigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy faoliyat tajribasi, motivlar, qadriyatlar, ijodiy qobiliyatlar aks etadi hamda bularning barchasi ta'lim muassasasining innovasion muhiti, yaxlit ta'lim tizimi bilan bevosita bog'liqdir.

Pedagog kadrlarning innovasion salohiyatining mohiyatini ochib berish bo'yicha nazariy tahlil asosida shuni qayd etish mumkinki, mazkur muammo ancha murakkab, ko'p aspektli bo'lib, uni tadqiq etishni davom ettirishni taqozo etadi. Jumladan, pedagog kadrlarning innovasion faoliyatining nazariy asoslarini tadqiq qilish bilan birga, mustaqil malaka oshirish jarayonida tashqi ta'sir vositasida pedagogik faoliyatda pedagog kadrlar innovasion salohiyatini rivojlantirishning andrapedagogik shart-sharoitlarini tadqiq etishga alohida zarurat mavjud. Pedagog kadrlarning innovasion salohiyatini rivojlantirish mexanizmi professor-o'qituvchilarning yuqori o'quv, ilmiy-tadqiqotchilik, amaliy faolligini ta'minlaydi hamda ta'limiy, ilmiy va amaliy faoliyatni integrasiyalash imkonini berib, kasbiy tayyorgarlik mazmunini o'z vaqtida yangilab borish, shaxsiy ehtiyojlarni muntazam monitoring qilib borish hisobiga resurslarni maqsadli yo'naltirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda pedagog kadrlarning innovasion salohiyatini uch o'zaro aloqadorlikka ega tarkibiy asosga tayanmasdan amalga oshirib bo'lmaydi: tarmoq texnologiyalari orqali hamkorlikdagi faoliyatni samarali amalga oshirish; pedagog kadrlarning innovasion faolligini rag'batlash; malaka oshirish jarayonida tinglovchilarining ilmiy-tadqiqotchilik va amaliy faoliyatini jadallashtirish.

Adabiyotlar ruyxati:

1. Ishmuxamedov R., Mirsoliyeva M., O'quv jarayonida innovasion ta'lim texnologiyalari. - T.: «Fan va texnologiya», 2014.
2. Zeyer E.F., Shaxmatova N. Lichnostyu oriyentirovannyye texnologii professionalnogo razvitiya spetsialista. - Yekaterinburg, 1999.
3. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. - M.: «Znaniye», 1996.
4. Muslimov N.A. Bulajak kasb ta'limi ukituvchilarini kasbiy shakllantirish. / Monografiya. - T.: «Fan», 2004.
5. Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta'limi ukituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: «Iktisodiyot», 2012.
6. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.X., Sayfurov D.M., Turayev A.B., Innovasion ta'lim texnologiyalari. - T.: «Sano standart», 2015.